

ROSSIYA VA UKRAINA O'RTASIDAGI QUROLI TO'QNASHUVLARDA ISHG'OL QILISH BO'LINMALARINI JANGOVAR QO'LLASH TAJRIBASI

Yesberdiyev Aljan Omarovich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti QK BShF
Jangovar ta'minot kafedrasida harbiy razvedka sikli katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Rossiya qurolli kuchlari tomonidan Ukrainadagi harbiy to'qnashuvlarda ishg'ol qilish bo'linmalarining kuch va vositalarini jangovar qo'llash tajribalari. Shuningdek, Rossiya va Ukraina ishg'ol bo'linmalarining tashkili tuzilishi, tartibi, hamda jangovar qo'llashda taktik harakatlarning o'ziga xos jixatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ishg'ol bo'linmalari, Rossiya va Ukraina, maxsus harbiy operatsiya, razvedka ma'lumotlari, Ishg'ol otryadi, uchuvchisiz uchish apparatlari, Dronlar.

Аннотация: в данной статье рассматривается опыт боевого применения сил и средств подразделений, осуществляющих занятия в ходе военных столкновений в Украине, осуществляемых Вооруженными силами Российской Федерации. Также освещены особенности организации, структуры и состава подразделений, осуществляющих занятия, а также тактические приемы, применяемые в боевой обстановке у российских и украинских формирований.

Ключевые слова: подразделения, осуществляющие занятия, Россия и Украина, специальная военная операция, разведывательные данные, отряд, осуществляющий занятия, беспилотные летательные аппараты, дроны.

Abstract: This article examines the combat deployment of Russian forces' assault units in the military clashes in Ukraine, focusing on their strength and equipment. The organization, structure, and composition of both Russian and Ukrainian assault units, along with distinctive tactical maneuvers employed in combat, are also detailed.

Keywords: assault units, Russia and Ukraine, special military operation, intelligence data, assault detachment, unmanned aerial vehicles, drones.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "...istiqboldagi qurolli mojarolarga, har qanday xavf va tahdidlarga munosib qarshi tura oladigan, o'ta tezkor, shiddat bilan qaqshatqich zarba bera oladigan, ... milliy armiyamizni shakllantirishimiz, bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi" degan so'zlari ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishga va zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda rivojlangan davlatlar armiyalarining tajribalarini o'rganishga undaydi [1].

Rossiya va Ukraina o'rtasida amalga oshirilayotgan qurolli to'qnashuvlarda "Ishg'ol qilish bo'linmalari" asosiy vazifani bajarib kelmoqda. Bunda asosiy pozitsiyalarni, toifalangan ob'ektlarni, aloqa markazlari yoki ko'priklar kabi strategik hududlarni egallashda ishg'ol qilish bo'linmalari asosiy rol o'ynamoqda.

Rossiya qo'shinlari hozirgi kunda o'rmonli va shahar hududlarda asosan piyoda qo'shinaridan foydalangan holda jang qilishni afzal ko'rmoqda. Chunki o'rmon va shahar sharoitlarida og'ir zirhli texnikalar hamda tanklardan foydalangan holda olib borilgan jangovar harakatlar ko'p yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda.

Ushbu hududlar zirhli transport vositalaridan foydalanish uchun juda noqulay. Bunday transport vositalari uchun o'rmonni kesib o'tish qiyin, bu ularni o'rmon chekkasida yoki ular orasidagi ochiq maydonlarda harakatlanishga majbur qiladi. Ikkala holatda ham mashinalar tankka qarshi qurollar, artilleriya yoki oldindan joylashtirilgan mina maydonlariga duch kelishi mumkin. Shahar joylarida ko'chalar mavjudligi sababli transport vositalarining harakatlanishi osonroq bo'ladi, ammo texnikalar tankka qarshi minalarga duch kelishi mumkin. Shu bilan birga, artilleriya zarbalari mashinalarni osongina nishonga olishi mumkin, chunki texnikaning binolar orasida manyovr qilishi mushkul. Zirhli jangovar texnikaning zararlanishi uning ekipaj a'zolarini ham halok bo'lishiga olib keladi. Rossiya qo'shinlari uchun zirhli texnikalar ekipajini tayyorlashdan piyoda qo'shinnarni tayyorlash va qurollantirish arzonroq va osonroq hisoblanadi. Shu sababli Rossiya mudofaa vazirligi ishg'ol qilish bo'linmalarini kuchaytirishga qaror qildi. Hozirgi kunda Rossiya mudofaa vazirligi ishg'ol qilish bo'linmalarida asosan otryadlarida (5 dan 10 kishigacha), vzvod tarkibida (10 dan 60 kishigacha), rota (60 dan 300 kishigacha), batalonda (300 dan 950 kishigacha), polkida (950 dan 2000 kishigacha) diviziyasida (4000 dan 20 000 kishigacha), korpusda (20 000 dan 40 000 gacha) shaxsiy tarkibiga ega [2].

Rossiya mudofaa vazirligi ishg'ol qilish otryadining tarkibiy tuzilihi (2024 yil)

Rossiya mudofaa vazirligida "Ishg'ol qilish otryadi" **uchlik** deb ataladigan 3 kishidan iborat bo'lgan 4 guruhdan tashkil topgan.

Harakatlar paytida bu uchlikni romb shaklidagi pozitsiyalarni egallagan va shu tartibda harakat qilgan.

Otryad old dozorida sapyor, pulemyotchi va uning yordamchisidan iborat bo'lgan old dozordan tashkil topgan.

Ikkinchi uchlik o'ng qanotda joylashadi. Ularga pulemyotchi, granatomyotchi va uning yordamchisi kirgan.

Chap qanotda granatomyotchi, feldsher va sapyor joylashgan.

Ort dozorda otryad komandiri, aloqachi va uchuvchisiz uchish apparati operatori joy olgan. Bu otryad tarkibi jangovar vazifaga qarab kuchaytirilishi mumkin. Ularga yana 3

kishilik guruh (pulemyotchi, minomyotchi va granatomyotchi) tarkibida kuchaytiriladi [2].

Bu tarkib Rossiya ishg'ol qilish otryadining 2024 yildagi tarkibi ammo ular 2025 yilga kelib tarkibni butunlay o'zgartirgan.


2025 yilga kelib Rossiya ishg'ol qilish otryadi tarkibi o'zgargan

Rossiya armiyasi maxsus harbiy operatsiya zonasida o'zining ishg'ol qilish bo'linmalaridan foydalanish taktikasini faol ravishda yangilashga hamda shtat va tashkiliy tuzilmasini o'zgartirishga qaror qildi.

Ukraina ommaviy axborot vositalari 2025-yil 6-fevral kuni bergan ma'lumotiga ko'ra, Rossiya armiyasi ishg'ol qilish vzvodlarining yangi shtat va tashkiliy tuzilmasini yaratish haqida ma'lum qilgan.

Qayd etilishicha, Rossiyaning Shimoliy harbiy okrug zonasidagi yangi hujum guruhlar taktikasi polshalik tahlilchi Polsha tadqiqotchisi Makey Korovay tomonidan o'rganilgan va jangovar hujjatlar asosida batafsil tahlil qilingan.

Polsha tadqiqotchisining so'zlariga ko'ra, Rossiya ishg'ol qilish vzvodiga 34 kishi kiradi, ulardan biri ofitser, 5 nafari katta serjantlar va 28 nafar oddiy askar (uchta zirhli transport vositasida harakatlanadi) [2].



Vzvod an'anaviy uchta bo'limga emas, balki besh guruhga bo'lingan.

Vzvod boshqarmasi tarkibida vzvod komandiri, o't ochib qo'llab quvvatlash guruhi (guruh tarkibi og'ir zirhli texnikalarga qarshi granata otish moslamasi, 2 ta aloqachi va

pulemyotchi, 2 ta feldsherdan hamda 2 nafar uchuvchisiz uchish apparati operatorlaridan iborat).

Vzvodning barcha guruhiga 2 tadan uchuvchisiz uchish apparatlari operatorlari qo'shilgan. Shuningdek, guruh jangovar zirhli transportiga, haydovchisi va qurol operatorlariga ega. Vzvod tarkibidagi 24 nafar shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarning barchasi tungi ko'rish moslamalari va haroratga ta'sirchan qurilmalar bilan qurollantirilgan.



1-rasm. Yojik droni

Rossiyalik harbiy ekspertlar "EADaily" veb-sahifalarida ta'kidlaganidek, yaqinda Rossiya Shimoliy harbiy okrug zonasida masofadan boshqariladigan robotlardan "Dron Yojik"lardan foydalangani kuzatilgan.

Rossiyada tanklarga qarshi "Yojik" nomli yer droni ishlab chiqilgani haqida birinchi marta 2024 yil 27 martda ma'lum qilgan. Mazkur yer dronlari zirhli

texnikalarni, uchuvchisiz uchish apparatlarini va dushman tirik kuchini yo'q qilish uchun mo'ljallangan. "Yojik droni" 5 kg gacha yukni ko'tara olish, 5 km masofagacha harakatlana olishi, 360 daraja burchak ostida kuzatish va minalarni tashish xususiyatiga ega (1-rasm).

Ishg'ol qilish bo'linmalarining yerda va havoda masofadan boshqariladigan apparatlardan foydalanishi va bo'linma tarkibining o'zgarishi Rossiya mudofaa vazirligiga sezilarli darajada muvaffaqiyat keltirdi.


Umuman olganda, Rossiya ishg'ol qilish bo'linmalari tarkibini oshirgani hamda har bir guruhga dron operatorlarini qo'shilgani, bu bo'linmaning takomillashganini va ortiqcha talofatlarsiz muvaffaqiyatga erishayotgani isbotlamoqda [3].

Ukraina mudofaa vazirligi

Ukraina mudofaa vazirligi ishg'ol qilish otryadlari bo'yicha ma'lumotlar ochiqlanmagan, ammo Tog'li hujum brigadasi bo'yicha ma'lumotlar ochiq manbalarda keltirilib o'tilgan.

Ukraina mudofaa vazirligi tog'li hujum brigadasi Ukraina mudofaa vazirligining tog'li hujum brigadasi 2024-yil 24-fevral kuni tashkil etilgan. Mazkur brigada Rossiya qo'shinlariga qarshi Kievda, Donbassla, Baxmutda va Avdeevkada bo'lgan janglarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan.

Tog'li hujum brigadasi tarkibiy tuzilishi



Ukraina mudofaa vazirligi Tog'li hujum brigadasi 3 ta ishg'ol qilish bataloni, tank rotasi, artilleriya bo'linmasi, havo hujumidan mudofaa bataloni, razvedka bo'linmasi, merganlar vzvodi, muhandislik bo'linmasi, tibbiyot bo'linmasi, aloqa bo'linmasi, logistika va texnik xizmat ko'rsatish bo'linmalariga ega.

Ukraina qurolli kuchlarining "Tog'li hujum brigadasi" tarkibidagi ishg'ol qilish batalonlari asosiy balandliklarni qo'lga kiritish va himoya qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi. Batalon harakat cheklangan yerlarda janglar olib boradi, shuningdek, boshqa harbiy qismlarga yordam beradi.

Ular o'z harakatlarini relief va topshiriqlarga, shu jumladan tog'-kon texnikasi va maxsus kuchlardan foydalanishga qarab moslashtiradi [3].

Ukraina qurolli kuchlarining tog'li hujum bataloni turli xil operatsiyalarni o'tkazadi, jumladan:

1. Balandlikni qo'lga olish va ushlab turish. Asosiy e'tibor tog'li erlarda muhim bo'lgan strategik ahamiyatga ega balandliklar va chegaralarni nazorat qilishga qaratiladi.

2. Ko‘rinishi cheklangan vaziyatlarda jangovar operatsiyalar o‘tkazish. Tog‘larda jang qilishda batalon murakkab sharoitlarga, jumladan tuman va qorga moslashadi, bu esa maxsus tayyorgarlik va taktik rejalashtirishni talab qiladi.

3. Patrullik va razvedka. Dushmanni razvedka qilish va operatsiya hududidagi holatni kuzatish bo‘yicha vazifalarni bajarish.

4. Fuqarolik yordami. Mahalliy aholi bilan o‘zaro hamkorlik, jumladan, gumanitar operatsiyalar, ayniqsa evakuatsiya yoki yordam yetkazib berish zarur bo‘lganda.

5. Sabotaj guruhlariga qarshilik ko‘rsatish. Xavfsizlikni ta‘minlash va dushman diversantlariga qarshi kurashish.

6. Doimiy shaylik. Tog‘dagi sharoitni va relefning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy tarkibni tayyorlash.

Ukraina mudofaa vazirligi ishg‘ol qilish bo‘linmalarining Rossiya bo‘linmalaridan farqi ularda artilleriya, havo-hujumidan mudofaa, merganlar va logistika bo‘linmalarining qo‘shilganidir.



2-rasm. FPV droni

Bundan tashqari, Rossiya va Ukraina o‘rtasida davom etayotgan harbiy harakatlarda dron texnologiyalaridan foydalanish Ukrainaning mudofaa strategiyasining asosiga aylandi.

Dronlar o‘zining ko‘p qirraligi va ilg‘or imkoniyatlari bilan razvedka, kuzatuv va hatto to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarbalar berish kabi strategik afzalliklarga ega bo‘lib, an‘anaviy qurollardan ko‘ra samarali ekanligini

isbotladi.

Hozirda turli ko‘rinishdagi uchuvchisiz uchish apparatlari Ukraina armiyasi arsenalining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Jangovar harakatlarda uchuvchisiz uchish apparatlariga ayniqsa, “FPV” dronlariga bo‘lgan talabning oshishi ularni boshqaruvchi mutaxassislariga ya‘ni dron operatorlariga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda va Ukraina qo‘shinlarida ushbu turdagi dron operatorlarining yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Shu sababli Ukraina hukumati dron operatorlarini tayyorlashga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirda bevosita janglarda ishtirok etuvchi “FPV” dronlari operatorlarini tayyorlash front chizig‘iga yaqin joylarda yo‘riqchilar tomonidan amalga oshirilmoqda (2-rasm).

Ukraina ishg‘ol qilish bo‘linmalari “FPV” dronlardan foydalangan holda Rossiya qo‘shinlariga qarshi kuniga 100 dan ortiq hujumlarni uyushtirmoqda. Unga ko‘ra, shu

kunga qadar Ukraina qo'shinlari dronlardan foydalangan holda Rossiyaning 478 ta harbiy texnikalarini va 10 000 dan ortiq uchuvchisiz uchish apparatlarini zararsizlantirgan [4].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin, hozirgi kunga kelib Rossiyaning Ukrainadagi maxsus harbiy operatsiyasi urishidagi, jang olib borish taktikasi tubdan o'zgardi. Ishg'ol qilish bo'linmalarida olib borilgan islohotlar ularni son jihatdan kamaytirib harakatchan va tezkor kichik guruhlar hosil qilindi. O'z navbatida AQSh va G'arb davlatlarining misilsiz ko'magi ostida FPV va boshqa rusumdagi dronlar ishg'ol bo'linmalar tarkibiga kiritilishi va ulardan alohida bo'linmalar tuzilishi natijasida ma'lum bir vaqt davomida nafaqat mudofaada balkim qarshi hujumda ham ustunlikni Ukraina qo'lga kiritdi. Rossiya esa vaqtdan unumli foydalanib o'z bo'linmalarini tubdan isloh qilishi natijasida mobil, tezkor va hujumkor harakatlarni amalga oshiruvchi kichik bo'linmalar yaratildi va frontdagi ustunlik to'liq Rossiya tarafga o'tdi. Bugungi kunga kelib ishg'ol bo'linmalarni qayta isloh qilish va ularni ma'lumot taminoti bilan qollab quvvatlashini UUA lari va dronlar yordamida amalga oshirish kerak ekanligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki, qarama qarshi kurashadigan tomonlar harakatlarning keyingi davomiyligini "harbiy teatr sahnasi" da yaqin kelajakda qanday bo'lishini aniq aytib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 32-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi /Sh.Mirziyoyev// Vatanparvar, 2024-yil 11-yanvar. 1-2 b.
2. Матвеевский, М.М. Организация и ведение разведки в интересах боевого применения общевойсковых подразделений в современных операциях. [Электронный ресурс] / М.М. Матвеевский, // Военная мысль. – 2025. - № 05. - Режим доступа: <https://interaffairs.ru/news/show/14724>. - Дата обращения: 27.09.2025.
3. Конистантин, Д. Тактические действия штурмовых подразделений в современных конфликтах [Электронный ресурс]/ Д. Конистантин // Военная мысль. - 2025. - №2. - Режим доступа: <https://interaffairs.ru/news/show/14724>. - Дата обращения: 30.09.2025.
4. Рябов К., Организация и ведение разведки в интересах боевого применения общевойсковых подразделений в современных операциях. [Электронный ресурс] / К. Рябов // Военная мысль. – 2025.– №01. Режим доступа: <https://army-news.ru/2025/09/-штурмовые-действия/>. Дата обращения: 28.09.2025.

5. Куланов, Б. Я., & Саодуллаев, А. С. (2021). Развитие альтернативных источников энергетики Узбекистана. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ (pp. 29-32).

6. Арзикулов, Ф. Ф., & Мустафакулов, А. А. (2020). Возможности использования возобновляемых источников энергии в узбекистане. НИЦ Вестник науки.

7. Мусаев, Ш., Арзикулов, Ф. Ф., Олимов, О. Н., Норматова, Д. А., & Сатторова, М. А. (2021). Свойства кристаллов кварца. Science and Education, 2(10), 201-215.

8. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные источники энергии. Academic research in educational sciences, 2(5), 1227-1232.

9. Отажонов, И. О. (2021). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморлар ҳаёт сифати кўрсаткичлари.

10. Отажонов, И. О. (2020). Кам оксилли парҳез самарадорлигини баҳолаш.

11. Otajonov, I. O., & Urinov, A. M. (2024). Assessment of Quality of Life Indicators of Patients with Cirrhosis of the Liver.

12. Otajonov, I. O. (2023). ANALYSIS OF MICRONUTRIENTS IN BABY FOOD RATION IN THE PRESENCE OF COMPLICATIONS AFTER RICKETS. Conferencea, 144-146.

13. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. (2018). Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик, Тошкент.

14. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., Сайфуллаева, Д. И., & Яхшибоева, Д. Э. (2023). Использование медиатеchnологии в образовании. Журнал гуманитарных и естественных наук, (6), 94-99.

15. Базарбаев, М. И., & Сайфуллаева, Д. И. (2022). Раҳиғ мов Б Т., Ж, раева З Р. Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. ТТА Ахборотномаси, 10(10), 8-13.

16. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, Информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах. Вестник ташкентской медицинской академии, (2), 42.

17. Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Рахимов, Б. Т. ЗР Жураева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10. 2022. ТТА. Ахборотномаси, 8-13.

18. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. Информационно-коммуникационная технология в медицинских вузах. Реформы в медицинском образовании, проблемы и их решения. In Сборник материалов XII научно методической конференции. Ташкент-2018.

19. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах.

20. Фазилова, Л., & Абдуганиева, Ш. (2018). Компьютерные технологии в высшем медицинском образовании. Стоматология, 1(4 (73)), 59-61.

21. Abduganieva, S., Fazilova, L., Nurmatova, F., & Khodjaeva, D. (2023). Computer-human interaction: Web technologies in education. PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM:(PTLICISIWS-2022), 2789(1), 050005.

22. Nurmatova, F. B., Xuan, R., & Fazilova, L. A. (2024). The advantages of implementing digital technology in education. Innovations in Science and Technologies, 1(3), 192-195.

23. Фазилова, Л. А. Масофавий таълимни ташкил этишда онлайн маърузалардан фойдаланишнинг назарий-методологик аҳдмияти. Замонавий тиббий олий таълим: муаммолар, хорижий тажриба, истикболлар" мавзусидаги VII уқув-услугий анжуман туплами.-УДК, 004-37.

24. Fazilova, L. A. "Studying Medicine In Online Education With The Mobile Application" A To Z Anatomy". The American journal of Engineering and Technology, 94-99.

25. Каюмова, М. (2025). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ВЫЗОВЫ. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 165-168.

26. Fayziyeva, N. (2021, December). Modeling and Forecasting of Tax Revenue to the Budget for Profit in the Republic of Uzbekistan. In Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 420-424).

27. Baxtiyorovna, E. D., Alisherovna, F. N., & Hozhievich, B. E. (2025). HISTORY OF THE DISCOVERY OF RADIOACTIVITY AND X-RAYS, NUCLEAR EXPLOSIONS EXPLANATION OF THE PHENOMENON RESEARCH USING INTERACTIVE METHODS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(5), 61-65.

28. Fayziyeva, N. (2025). THE EFFECT OF MAGNESIUM ON PREGNANT WOMEN. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 3(5), 60-63.

29. Fayziyeva, N. (2025). THE INTENSITY OF DIABETES CASES AMONG THE POPULATION OF BUKHARA REGION OVER THE PAST 5 YEARS. International journal of medical sciences, 1(1), 158-161.

